

CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING QATAR

TURK ADABIYOTIDA SEVGI MOTIVI

Ibrohimova Ra'no Muzaffar qizi

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish:

o'zbek tili yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Rashod Nuri Guntekinning "Choliqushi" asarida sevgi mavzusi, sevgi motivi ilmiy jihatdan tahlilga tortilgan. Ayol xarakterini yoritishda sevgi motivining o'рни, detallar va peyzaj orqali ayol ruhiyatini yoritilishi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: motiv, detal, portret, peyzaj, sadoqat, timsol, qahramon, obraz

Аннотация: В произведении Рашода Нури Гунтекина «Чоликвыши» научно анализируется тема любви и мотив любви. Рассматривается роль мотива любви в раскрытии женского характера, освещение женской психики через детали и пейзаж.

Ключевые слова: мотив, деталь, портрет, пейзаж, верность, символ, герой, образ

Abstract: Rashod Nuri Guntekin's "Cholikvyshi" offers a scientific analysis of the theme of love and its motif. The role of the motif of love in revealing a woman's character is explored, highlighting the female psyche through details and landscape.

Keywords: motif, detail, portrait, landscape, fidelity, symbol, hero, image

Nafaqat turk, balki o'zbek xalqidan ham o'z kitobxonlariga ega bo'lgan Rashod Nuri Guntekinning "Choliqushi" romani ilk bor 1922-yilda chop etilgan bo'lsa-da, hozirda ham o'z mavqesini yo'qotgan emas. Ushbu asarda sevgi ortiga yashiringan ayol timsolining matonati, vafosi, qudrati yotadi. Butun bir



CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING • QATAR •

turkiy xalqlarning ayollariga xos bo'lgan nafis va javohir hislatlar Feridey (Choliqushi) obraziga jamlangan.

Har bir asarda personajlar xarakteristikasini ochib berishda muhim vosita sanalgan portret atamasi T.Boboyevning “ Adabiyotshunoslik asoslari” qo'llanmasida quyidagicha tavsiflanadi: “Portret (frans. portrait — tasvir) — badiiy asarda kishining tashqi qiyofasi, siymosi, kiyim-kechagi va hokazolar tasviri. Portret atamasi, odatda, ikki ma'noda, ya'ni qahramonning tashqi ko'rinishi (tor ma'noda) va qahramonning individual-psixologik qiyofasi (keng ma'noda) qo'llaniladi. San'atkor yozuvchi qahramonning tashqi qiyofasini chizish orqali ham uning ruhiyatiga kirishga intiladi. Xususan, portret unsurlaridan ko'z, yuz, kulgi, ko'z yoshi va boshqalar san'atkor uchun qahramon ruhiy dunyosini ochuvchi kalit bo'lib xizmat qiladi”. [178-bet]

Asardagi Choliqushi obrazini yoritishda qo'llanilgan portret muallifning qanchalik mohir yozuvchi ekanligiga isbot bo'ladi: “ To'rtinchi sinfda edim. Yoshim o'n ikkilarda bo'lishi kerak. Frantsuz tili muallimimiz Aleksy opa bir kun bizga inshodan vazifa topshirdi. “Hayotdagi ilk xotiralaringizni yozishga harakat qiling. Ko'raylik-chi, nimalarni eslar ekansizlar. Sizlar uchun bu ajoyib xayol mashqi bo'ladi”, — degan edi u. Hech esimdan chiqmaydi: sho'xligimdan, sergapligimdan bezor bo'lgan murabbiylarim meni o'rtoqlarimdan ayirib, sinf burchagidagi bir kishilik kichkina partaga o'tqazib qo'yishgan edi. Mudira aytgandek, men “dars paytida qo'shnilarimni gapga tutmaslikni, o'qituvchimizning so'zlarini odob bilan tinglashni o'rganguninga qadar” u yerda surgun hayot kechirishga mahkum edim”. [3-bet] Yuqoridagi keltirilgan parchadan yana shuni xulosa qilish mumkin-ki, Choliqushi yoshligidan sho'x, shaddod, o'yinqaroq, sergap, quvnoq qizaloq sifatida nafaqat dugonalari, oila-a'zolari, balki muallimalari tomonidan ham u shunday xarakter sohibasi sifatida qabul qilingan.

Dastlab Feridey o'z tuyg'ularidan qochgan, sevigisini tan olmagan, qaysar obraz sifatida tasvirlansa-da, asar davomida tuyg'ulariga yengiladi. Kamronga nisbatan o'z ichki kechinmalarini anglab yetadi, ya'ni Ferideyning qalbida tug'ilgan ishq, muhabbatning ilk kurtaklari egasini o'ziga asir qiladi.



CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING QATAR

Uning qalbidagi muhabbat qudrati, kuchi barcha ayollar sevgisining bir timsolidir. Ferideyning xarakteri, yurish-turushi, soʻzlari, umuman olganda, Feridey sevish yoki sevilish degan tushunchalardan yiroq, shoʻx, qaysar, oʻzi ulgʻaysa-da, koʻngli hali ham yosh qizchalardek edi. Hatto uning oʻzi ham bu savdoning qurboni boʻlaman deb hech xayoliga keltirgan emas. Fikrimiz dalili sifatida asardan quyidagi qismni keltirsak: “Hikoyamning qahramonini avval Mujgondan yashirishga tirishdim-u, keyincha buni ham ogʻzimdan chiqarib yubordim.

Mujgon sochlarimni silab, soʻzlarimga jimgina quloq solib oʻtirardi. Soʻzimni bitirib, dugonalarim haqida yolgʻon-yashiq narsalar aytganim aybligini boʻynimga olganimda, u nimalar dedi deng?

— Bechora Faridaginam! Komron chindan ham jigaringdan urib qolibdi! Jinim qoʻzgʻadi-yu, birdan oʻzimni Mujgonning ustiga tashladim, uni qurib qolgan oʻtlar ichida yumalatib tortqilay boshladim.

— Nima deding, opa, nima deding? Men unaqa sariq chayonni...

Mujgon oʻlib-tirilib oʻzini qutqazishga tirishar, tipirchilardi.

— Qoʻyvor, qoʻyvor deyman senga! Ust-boshimni yirtasan! Odamlar koʻrsa sharmanda boʻlamiz, xudo xayringni bersin, bunday qilma, — deb yolvorardi.

— Soʻzingni qaytarib ol...

— Xoʻp, qaytarib oldim. Nima desang qilaman, lekin meni qoʻyib yubor.

— Ammo yuz-xotir uchun emas, meni aldash uchun emas... Chindan...

— Juda soz, yuz-xotir uchun emas, seni aldash uchun emas... Chindan...

Mujgon oʻrnidan turib, ust-boshini qoqa boshladi.

— Farida, chindan ham jinni boʻlibsan, — dedi kulib.

Men oʻrnimdan turmagan edim, titrab turib:

— Xudodan qoʻrqmay menga qanday tuhmat qilding-a, opa! Men hali yoshman,

— dedim. Ana shundan keyin oʻzimni toʻxtatolmay yigʻlab yubordim”. [63-bet]

Dialogdan yana bir Ferideyning oʻziga xos jihatini koʻrishimiz mumkin. U oʻz qalb ovozi ruhan his qilmagan yoki bu ovozni eshitishni xohlamaganligi uning tabiatan qaysar va oʻjarligiga yaqqol misol boʻladi.



CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING QATAR

Ferideynining aslida Choliqushi deb atalishiga sabab bor: “Bog‘da qurigan daraxt bo‘lardi. Payti keldi deguncha o‘shanga tirmashib chiqib olganimni, po‘pisalarga quloq solmay tanaffus oxirigacha shoxdan shoxga irg‘iganimni ko‘rgan muallima: “bu odam emas, choliqushi”,- deb koyigan edi”[18-19-betlar]. Ko‘rinadiki, Choliqushi laqabi muallim tomonidan qo‘yilgan, bunga uning fe‘l-atvoridagi sho‘xligi, quloqsizligi, ya‘ni bolalarcha beg‘ubor, o‘ynoqligi sabab bo‘lgan. Bu uning boshqa qizlardan, atrofidagi dugonalaridan ajratib turuvchi jihati. U o‘z pok muhabbatiga, Choliqushiga xos bo‘lgan qaysargina sevgisiga munosib javobni ololmagani uchun vijdoni va g‘ururi Kamronga nisbatan tuyg‘usini nafratga aylantirdi, go‘yoki totli bir sharbat bir zumda zaharga aylandi-yu qoldi. Bu nafrati nafaqat zolim sevgilisi Kamron uchun azob bo‘ldi, balki murg‘ak qalb egasi - Choliqushini hayotning baland-past suqmoqlaridan yurishiga, turli xil achchiq- shirin haqiqatlarini tatib ko‘rishiga sabab bo‘ldi.

Sevgisi ortidan tug‘ilgan nafrat unga hayotning turli qirralardan iborat ekanligini o‘zining achchiq o‘yni va sinovlari orqali Choliqushiga ko‘rsatdi. Buning evaziga taqdir o‘z jabrlanuvchisiga mukofot sifatida sabr va go‘zal baxt, har vaqt kutilgan ko‘nglidagi shahzodasi bilan yana qayta muhabbat sharobidan ichishdek qadrlı va aziz imkonni hadya etdi: “Azizbey kulimsirab, Faridaga yaqin keldi, iyagidan ushlab ko‘zlariga tikildi.

— Kema kelishga keldi-yu, lekin senga foydasi yo‘q. Ering javob bermayapti, — dedi.

Farida bir qadam orqaga tashlandi, hayratidan ko‘zlari olaydi.

— Pochcha, nima deyapsiz!

Azizbey barmog‘i bilan Komronga ishora qildi.

— Mana ering, qizim, mening daxlim yo‘q, — dedi.

Farida voylab yuzini to‘sdı. Yiqilib ketishi mumkin edi, biroq allakimning qo‘li bilagidan ushlab qoldi. Farida ko‘zlarini ochib qaradi: oldida Komron turardi.

Azizbey shodiyona bir qahqaha bilan:

— Ey, xayriyat, axiri qafasga tushdingmi, Choliqushi? Qani, tipirchilab boq-chi, bir ko‘ray, qani, tipirchilab boq-chi! Qani, ko‘raylik-chi, foydasi bormikan?—



CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING QATAR

dedi.

Farida yuzini to'sishga harakat qilsa ham, bilagini Komrondan qutqazolmas, boshini berkitishga urinsa ham, Komronning ko'ksi va yelkasidan boshqa yerni topolmas edi.

Azizbey yana boyagi qahqaha bilan:

— Atrofingdagilar senga tuzoq qurishdi, Choliqushi, — dedi. — Siringni mana shu xoin Mujgon fosh qilib qo'ydi. Xudo rahmat qilgur doktoring Komronga daftaringni yuborgan ekan, daftarni olib, to'g'ri qozining oldiga bordim. O'zing yozgan ba'zi narsalarning joylarini ko'rsatdim. Qozi aqlli odam ekan, darrov nikohingga fatvo berdi; tushundingmi, Choliqushi? Mana endi Komron sening ering, endi u hech qachon seni tashlab ketmaydi.

Farida shu qadar qizarib ketdiki, yuzining rangi moviy ko'zlariga ham urib, ko'z qorachiqlarida o'tlar chaqnadi.

— Bas, Choliqushi, ko'p noz qilaverma! Ko'rib turibmiz, suyunganingdan shunday qilyapsan. Menga qara, "Pochcha, chakki qilmadingiz, ko'nglimdagi bo'ldi", de. Qani, takrorla!

Azizbey uni zo'rlab takror ettirdi. Keyin hujra eshigini ochib, g'olibona bir qahqaha bilan:

— Shariat yo'li bilan vakil otaman, afandim, — dedi. — Choliqushi, e kechirasizlar, Farida xonim nomidan mana shu Komronbeyni kuyovlikka qabul qildim. Fotiha qiling, biz ominni bu yerda turib aytamiz, — dedi. Keyin Faridaga o'girilib hazillashdi: — Endi nima deysan, Choliqushi? Mushtumdek bolasan-u, necha yildan beri jonimizni olib kelasan!

Endi xo'p boplab qo'lga tushirdimmi? " [409-410- betlar]

Bir muhabbat qissasi bu romanning mavzusi sifatida olinsa-da, lekin uning asl mohiyati muhabbat ortiga yashiringan, ayollargagina xos bo'lgan vafo, sadoqat kabi ulug' va qadrli xislatlarni hamda turkiy ayollar fitratiga xos sabr va matonat kabi jihatlarni ochib berishdir. Choliqushining muhabbati ortidan qozonilgan nafrat unga hayotni boricha sevishni, hayot xolosgina maktab va



CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING • QATAR •

chorbog‘dan iborat emasligini turli taqdir, dunyoqarash, xarakter egalari bilan uchrashtirib turmushning nozik jihatlarini ko‘rsatib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
2. Rashod Nuri Guntekin. Choliqushi . – Toshkent: “Yangi nashr” , 2019.

